

YUK POYEZDLARINI TUZISH REJASINING BAJARILISHI BUZILISHLARI SABABLARINI ANIQLASH

Shuxrat Xamroqul o‘g‘li Bo‘riyev
Toshkent davlat transport universiteti
mrshuhrathc@gmail.com

Dilmurod Baxodirovich Butunov
Toshkent davlat transport universiteti
dilmurodpgups@mail.ru

G‘ayrat Shuxrat o‘g‘li Ikramov
Toshkent davlat transport universiteti
Gayrat9433155@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ishdan maqsad yuk poyezdlarini tuzish rejasining samaradorligini buzilishlar sabablarini tahlil qilish va baholash natijalariga ko‘ra oshirish. Tizimli tahlil, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, grafik modellashtirish va Hosin-Kanri usulidan foydalanildi. Tashish jarayonida nomutonositliklarni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlandi. YuPTR bajarilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar va buzilishlarning sabablari sxematik ko‘rinishda ifodalandi. YuPTR bajarilishi buzilishlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Toshkent MTU tasarrufidagi texnik stansiyalar misolida aniqlandi va ular oltita guruhga ajratildi. Taqqoslash natijalari buzilishlarning 30% dan ko‘prog‘i 3-va 5-guruhlar ulushiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Ushbu buzilishlarni bartaraf etish yo‘llari Xosin-Kanri prinsipi asosida ishlab chiqildi. Uni amaliyotga joriy etish YuPTR buzilishlari sonini kamaytirish, texnik stansiyalarda vagon oqimlarini ratsional tashkil etish va boshqarish natijasida foydalanish harajatlarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘zlar: Yuk poyezdlarini tuzish rejasi, buzilish, buzilishlar statistikasi, inson omili, tashish jarayoni, vagon oqimi.

DETERMINATION OF CAUSES OF DISORDERS OF FULL TRAIN FORMATION PLAN

ABSTRACT

The aim of the study is to increase the effectiveness of the freight train plan based on the results of the analysis and evaluation of the causes of violations. Systematic analysis, statistical data analysis, graphical modeling, and the Hosin-Kanri method were used. Factors causing imbalances during transportation were identified. The main factors influencing the implementation of the FTFP and the reasons for the violations are shown schematically. Violations of the FTFP were identified on the example of technical stations of JSC “Uzbekistan Railways” in Tashkent RRJ and were divided into six groups. The results of the comparison showed that more than 30% of the violations occurred in groups 3 and 5. Ways to remedy these violations have been developed on the basis of the Hosin-Kanri principle. Its implementation will reduce the number of violations of the FTFP, reduce operating costs as a result of rational organization and management of wagon flows at technical stations.

Keywords: Freight train formation plan, breakdown, breakdown statistics, human factor, transportation process, wagon flow.